

**SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINI
BOSHQARISHNI TASHKIL ETISHNI RIVOJLANTIRISH VA UNING
IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Muxammadaliyev Mirzohidjon Muxammadali o'g'li

Toshkent arxitektura qurilish universiteti, katta o'qituvchi

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish mamlakatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida sanoat korxonalari mamlakat ichki bozorini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini samarali boshqarish, uni tashkil etish tizimini takomillashtirish va resurslardan oqilona foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligi, barqarorligi va foydalilik darajasi, eng avvalo, ishlab chiqarish faoliyatining samarali boshqaruviga bog'liqdir. Ishlab chiqarishni boshqarish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish korxona resurslaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, korxona boshqaruv tizimining zamonaviy tamoyillari-raqamlashtirish, innovatsion yondashuvlar, strategik rejalashtirish va sifat menejmenti-ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda korxonalarni boshqarish tizimida mavjud kamchiliklar, xususan, ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirishdagi noaniqliklar, resurslar taqsimotining yetarli darajada samarali emasligi hamda nazorat mexanizmlarining zaifligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli sanoat korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni tashkil etishni rivojlantirish, ilg'or boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va samaradorlikni

baholash mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi.

Korxonani boshqarishda yuqori samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning aniq maqsadlari, ularga erishish vositalari va amalga oshirish usullarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv maqsadlari nafaqat aniq va tushunarli bo'lishi, balki barcha ijrochilar — rahbariyatdan tortib, quyi bo'g'in xodimlarigacha — ularni amalga oshirishda ishtirok etishlari bilan ham ifoda topishi lozim. To'g'ri belgilangan maqsad korxona rahbari, jamoa va har bir xodim manfaatlarining uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Maqsadni to'g'ri belgilash korxonaning joriy va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon boshqaruv tizimining samaradorligini belgilaydi. Bunday yondashuv ishlab chiqarish maqsadlarining boshqaruv vazifalari bilan moslashuviga olib keladi, natijada korxona faoliyatidagi barcha resurslar va salohiyat imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkoni yaratiladi.

Har bir korxonaning asosiy vazifa va maqsadlari "Korxonalar to'g'risida"gi qonun asosida belgilanib, uning doirasida faoliyat yo'nalishlari tartibga solinadi. Bosh maqsad — raqobatbardosh va yuqori sifatli mahsulotni eng kam xarajat bilan ishlab chiqarish, maksimal foyda olish va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashdir. Shuning uchun boshqaruvning barcha vazifalari ushbu strategik maqsadni amalga oshirishga xizmat qilishi shart.

Boshqaruv samaradorligi ko'p jihatdan korxona oldiga qo'yilgan maqsadlar va ularni bajarish vazifalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik darajasiga bog'liq. Shu boisdan, boshqaruv maqsadlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- amalga oshirish muddatiga ko'ra – joriy va istiqbolli;
- ahamiyat darajasiga ko'ra – asosiy (strategik) va ikkinchi darajali (taktik);
- boshqaruv ob'ektiga munosabatiga ko'ra – xususiy va umumiy;
- natijaga erishish darajasiga ko'ra – yakuniy va oraliq (bosqichli).

Boshqaruv jarayonida joriy maqsadlar istiqbolli maqsadlarga, xususiy maqsadlar umumiy maqsadlarga, oraliq maqsadlar esa yakuniy natijalarga mos kelishi va ularga bo'ysinishi zarur. Shuningdek, asosiy strategik maqsadlarga

e'tiborni kuchaytirish boshqaruvning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlaydi. Zamonaviy menedjer uchun asosiy maqsadni ikkinchi darajali vazifalardan aniq farqlay olish qobiliyati muhim kasbiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Boshqaruv jarayoni, odatda, davriy (siklik) xarakterga ega bo'ladi. U maqsad va vazifalarni belgilashdan boshlanib, ularni amalga oshirish va aniq natijalarga erishish bilan yakunlanadi. Keyin esa olingan natijalar tahlil qilinib, yangi vazifalar belgilanadi va boshqaruvning yangi sikli boshlanadi. Bu jarayonning takrorlanishi boshqaruv tizimining doimiy takomillashuvini ta'minlaydi.

Amaliyotda esa turli ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, ishlab chiqarish belgilangan parametrlardan chetga chiqishi mumkin. Bunday hollarda operativ boshqaruv vositalari orqali ushbu chetlanishlar bartaraf etiladi va ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi ta'minlanadi.

Umuman olganda, boshqaruv siklining mazmunini — maqsad va vazifalarni belgilashdan tortib, ularni bajarish va natijalarni baholashgacha bo'lgan jarayonni — quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Bunda boshqaruv usullarini takomillashtirish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va ularni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish jarayoni natijalari ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlari – ishchi kuchidan, mehnat qurollaridan va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasidir. Ayniqsa, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish hajmini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ishchi kuchi samaradorligini aniqlashda mehnat unumdorligi, ishchilarning malaka darajasi, ishlab chiqarish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholashda faqat natijaviy ko'rsatkichlarni emas, balki ularni shakllantiruvchi omillar tizimini ham tahlil qilish zarur. Bu jarayonda ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi, foyda va rentabellik

kabi ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Shu sababli, iqtisodiy jarayonlarni alohida ko'rib chiqish ularning haqiqiy o'zaro ta'sirini aks ettira olmaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish samaradorligi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniqlanadi:

- ijobiy va salbiy omillarni aniqlash hamda ularning miqdoriy ta'sirini o'lchash;
- xo'jalik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari va proporsiyalarini aniqlash;
- ichki xo'jalik zaxiralarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish;
- biznes-rejalarni ilmiy asoslash hamda ularning ijrosini baholash;
- ilg'or boshqaruv tajribalarini umumlashtirib, optimal qarorlarni ishlab chiqish.

Bunda iqtisodiy jarayonlarning boshqaruv tizimidagi aloqadorligi va natijaviyligi induksiya usuli asosida tahlil qilinadi, ya'ni alohida xo'jalik hodisalari orqali umumiy iqtisodiy samaradorlik belgilanadi.

Sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish, ularni bozor talablariga moslashtirish zarur. Bunda moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tahlili alohida o'rin tutadi. Korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish nafaqat o'tgan davr natijalarini, balki istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini ham baholashga xizmat qiladi.

Tahlil jarayonida gorizontal, vertikal va trend tahlil usullaridan foydalanish samarali natijalar beradi. Gorizontal tahlil orqali ko'rsatkichlarning o'tgan davrlarga nisbatan o'zgarish sur'atlari aniqlanadi, vertikal tahlil esa jami natijada har bir bo'limning ulushini baholaydi. Trend tahlili esa uzoq muddatli o'zgarishlarning dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, maxsus iqtisodiy koeffitsientlardan foydalanish ham korxonaning moliyaviy holatini tez va aniq baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, inflyatsiya omilining ta'sirini ham hisobga olish muhimdir, chunki narxlar darajasidagi o'zgarishlar tahlil natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Korxona boshqaruvchilari uchun eng muhim masalalardan biri — qabul

qilinayotgan qarorlarning moliyaviy ko'rsatkichlarga, xususan likvidlik, rentabellik, to'lovchanlik va bozor faolligiga ta'sirini baholashdir. Foyda va rentabellik darajasi ishlab chiqarish samaradorligining eng muhim yakuniy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u korxona resurslaridan foydalanish darajasini ifodalaydi.

Foyda hajmi va rentabellik darajasiga ichki va tashqi omillar birgalikda ta'sir qiladi. Tashqi omillarga bozor narxлари, xom ashyo va materiallar qiymatidagi o'zgarishlar, soliq va tarif siyosati, shuningdek tabiiy-iqlim sharoitlari kiradi. Ichki omillar esa ishlab chiqarish samaradorligi, xarajatlarni optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va boshqaruv sifatini yaxshilash bilan belgilanadi.

Korxonaning moliyaviy holati va to'lov qobiliyati uning barqaror faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalaydi. To'lovga qodir korxona o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikning muhim kafolati hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi modernizatsiya bosqichida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish – ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, iqtisodiy tahlil tizimini takomillashtirish hamda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Natijada, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, rentabellikning ortishi va korxona iqtisodiy barqarorligining mustahkamlanishi ta'minlanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv tizimining to'g'ri tashkil etilishi, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlariga bog'liqdir. Boshqaruv samaradorligini oshirish – bu faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash emas, balki butun ishlab chiqarish tizimini muvofiqlashtirish, mavjud ichki zaxiralarni safarbar etish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni anglatadi.

Korxona faoliyatini baholashda mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi hamda ularning o'zaro mutanosibliги asosiy o'rin tutadi. Foyda,

rentabellik, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmi kabi ko'rsatkichlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ulardagi o'zgarishlar korxona iqtisodiy holatini to'liq aks ettiradi.

Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda faqat natijaviy ko'rsatkichlarni emas, balki ularni shakllantiruvchi ichki va tashqi omillarni ham chuqur tahlil qilish zarur. Ichki omillarga ishlab chiqarish texnologiyasi, mehnatni tashkil etish, boshqaruv sifati, resurslardan foydalanish darajasi kirs, tashqi omillar sifatida bozor sharoitlari, davlat siyosati, inflyatsiya darajasi va raqobat muhiti ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi bosqichida sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish — mamlakatning sanoat salohiyatini mustahkamlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartidir.

Takliflar.

1. Boshqaruv tizimini takomillashtirish: Korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish va boshqaruvning raqamli mexanizmlarini qo'llash lozim.

2. Resurslardan samarali foydalanish: Ishlab chiqarish resurslarining (xom ashyo, material, energiya, mehnat va vaqt) har bir turini iqtisodiy tahlil asosida baholash, ularni tejash bo'yicha ichki me'yorlarni belgilash kerak.

3. Moliyaviy tahlil tizimini chuqurlashtirish: Korxonalarining moliyaviy holatini baholashda foyda, rentabellik, to'lov qobiliyati va likvidlik ko'rsatkichlaridan tashqari, inflyatsiya va valyuta kursining ta'siri ham inobatga olinishi zarur.

4. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maqsadida energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy qilish tavsiya etiladi.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish: Korxona rahbarlari va mutaxassislarini zamonaviy boshqaruv, iqtisodiy tahlil, marketing hamda raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida doimiy malaka oshirish kurslariga jalb etish lozim.

6. Ichki xo'jalik zaxiralaridan foydalanish: Korxona imkoniyatlarini to'liq safarbar etish, ishlab chiqarish jarayonlaridagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va ichki zaxiralardan samarali foydalanish boshqaruv samaradorligini oshiradi.

7. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish: Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, soliq imtiyozlari va kredit yengilliklari orqali sanoat korxonalarining barqaror faoliyatini rag'batlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni
2. Giyosov, Ilhomjon Karimovich, and Inomjon Ortikbayevich Karimov. "TARGETED AND EFFECTIVE USE OF INVESTMENT IN CONSTRUCTION INDUSTRY"
3. Karimov I. O. Qurilish tashkilotlarida investitsiya loyihalar samaradorligini baholash usullari //“UCHINCHI RENESSANS: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari” mavzusidagi № 1-sonli ko'p tarmoqli, ilmiy onlayn konferensiya (2-qism).
1. Krämer S., Engell S. Energy and Resource Efficiency in the Process Industries //Resource Efficiency of Processing Plants: Monitoring and Improvement. – 2018. – C. 3-18.;
2. Burxanov A.U., Kurbonov X.A. Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo'llari (Qashqadare viloyati misolida) // – Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvarfevral, 2018 yil.;
3. Maxmudov N. M., Xomidov S. O., Avazov N. R. Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish //Monografiya)– T.:“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. – 2020. – T. 228.;
4. Yodgorova Sh. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'nalishlari //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 119-130.; Xakimov Z. A. Transformatsiya klasterov “Industriya 4.0” //Innovatsii i investitsii. – 2022. – №. 3. – S. 207-213.;

5. Maxsudov, B. Yu., & Abduvaliev, Z. (2022). INTEGRATSIYaLASHGAN HISOBOT: GENEZISI VA ISTIQBOLDA RIVOJLANISHI. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 2(1).
6. Abduvaliev, Z., and Z. T. Eshbekova. "INTEGRATSIYaLASHGAN HISOBOT KORPORATIV BOS HQARUV VOSITASIDIR." Arxiv nauchnykh issledovaniy 1.1 (2021).
7. Mahmudovich A. Z. Corporate social responsibility is an important factor in the sustainable development of modern companies //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – С. 42-53.
8. Махсудов Б., Абдувалиев З. Роль заинтересованных сторон (стейкхолдеров) в корпоративной социальной ответственности //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 3. – С. 49-57.